

**YANGI O'ZBEKISTON MA'NAVIY TARAQQIYOTINING
HUQUQIY ASOSLARI.*****Yangiboyev Farhod Rashidovich****O'zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo akademik litseyi huquq fani**o'qituvchisi 93-769-95-89**Farhod.yangiboyev@list.ru*

“Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizningboy merosi, milliy umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz”¹.

Shavkat

Mirziyoyev

Manaviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch. Hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma'naviyat jamiyatdagi barcha siyosiy – ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha ustahkam bo'lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mustaqillik yillarida ayniqsa, so'ngi besh – olti yilda bu borada ko'plab ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, mamlakatimizda inson erkin va farovon yahsaydigan ma'naviy makon, ma'rifatli jamiyat qurish uchun qat'iyat bilan harakat qilinmoqda. Qanday qiyinchilik va sinovlarga duch kelinmasin, shu maqsadda boshlagan barcha islohatlar izchil davom etib kelmoqda. Illiy ma'naviyatimizni



rivojlantirish, uni, yoshlarimiz hayotiga singdirish borasida keying yillarda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi 2019 yil 3-maydagi PQ – 4307-son qarori²;

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 2019 yil 31- dekabrda 1059-son qarori³;

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy – ma'rifiy ishlar tizimini tundan takamillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2021 yil 26-mart, PQ – 5040 – sonli qarori⁴ qabul qilindi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" deb nomlangan kitobida ham ma'naviy taraqqiyot masalasiga alohida to'xtalib, "Biz yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga ma'naviy, ma'rifiy jabhalarda amalga oshirilayotgan islohatlar ham muhim ahamiyatga ega ekanini yahshi anglaymiz"⁵ deb ta'kidlaydi.

Ma'lumki, jismoniy jihatdan baquvvat insonni tarbiyalash unchalik qiyin emas. Ammo insonni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan kamol topdirish g'oyat murakkab vazifa. Ayniqsa, Bugungu kunda – g'oyaviy kurashlar goh oshkora, goh pinohta tus olgan nozik, qaltis sharoitda, hozirgi tahlikali zamonda bu masala nihoyatda dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijod sohalarining ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotsagi ta'sirchanligini yanada oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish talab qilinmoqda.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilamas kuch" asarida takidlaganlaridek: "Jahon xalqlari tajribasi, ularning bosib o'tgan murakkab rivojlanish yo'llari, bu boradagi saboq va xulosalar shundan dalolat beradiki, qayerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch, osoyishta hayot kechirishi, o'z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar qo'yib yashashi uchun yetarli shart-



sharoitlar yaratilgan bo'lsa, o'sha yerda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma'naviyat yuksalishi uchun imkoniyatlar tug'iladi"⁶. Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch qudrat manbai sanaladi. Ma'naviyatsiz hech qachon jamiyatda odamiylik va mehr oqibat, baxt va soadat bo'lmaydi. Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida mavjud bo'lgan muommolarni ma'naviyatni rivojlantirishimiz, unga tayanish orqali hal etish mumkin. Ma'naviyat millatni taraqqiyotga yetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim olmil sanaladi. Chunki qayerda, qaysi mamlakatda yuksak ma'naviyat bo'lsa, o'sha joyda, o'sha mamlakatda johillik, hasadgo'ylik, yovuzlik, poraxo'rlik, o'z vatani va xalqiga nisbatan sotqinlik, tuhmat qilish kabi salbiy illatlar, ma'naviyatsizlik ko'rinishlariga o'rin qolmaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib Yangi O'zbekiston taraqqiyot stratigiyasi ma'naviy-ma'rifiy islohatlarga alohida e'tibor qaratilayotganidan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

- mamlakatimizda ma'naviy-marifiy ishlarni tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora tadbirlarning samaradorligini oshirish;

- aholi, ayniqsa yoshlarning intellectual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyo qarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash;

- vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tabor qaratish;

- jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan hozirgi davrda yoshlar orasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g'oyalar ta'siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo'shilib qolish holatlari oldini olish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish;

- ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish;

- davlat va jamoat tashkilotlarining ma'naviy-ma'rifiy sohadagi faoliyatiga yaqindan ko'maklashish;

- aholi orasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish;



“jaholatga qarshi ma`rifat” g`oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma`naviy-ma`rifiy tarbiya va targ`bot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategic yo`nalishlari va inovatsion uslublarini ishlab chiqish;

-aholining ijtimoiy-ma`naviy hayotida bunyodkorlik g`oyalarini kuchaytirish, diniy bag`rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlashga alohida e`tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Shavkat Mirziyoyev. Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.:”O`ZBEKISTON”, 2022.-B.261.
- 2.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4307 son qarori. “Ma`naviy-ma`rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”.
- 3.O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrgadi 1059-sonli qarori.”Uzluksiz ma`naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora- tadbirlari to`g`risida”
- 4.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.03.2021-yildagi PQ-5040- sonli qarori. “Ma`naviy-ma`rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”
- 5.Shavkat Mirziyoyev. Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.:”O`ZBEKISTON”, 2022.-B.261.
6. I.A.Karimov.Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch.-T.:”Ma`naviyat”,2008.-B.28-29.